

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV TARBIYA JARAYONIDA MULTIMEDIA RESURSLARIDAN FOYDALANISH

**Bo'ronova Maftuna Valijon qizi**

Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti  
+998997592739, boronovamaftuna30@gmail.com

**Saidova N.R.**

Ilmiy rahbar: p.f.f.d (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quv tarbiya jarayonida multimedia resurslaridan foydalanish orqali bolalarning fanga nisbatan qiziqishlarini o'stirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Multimedia, axborot texnologiyalari, elektron darsliklar.

**Аннотация:** В данной статье размышляется о важности использования мультимедийных ресурсов в повышении интереса детей к науке в процессе начального школьного образования.

**Ключевые слова:** Мультимедиа, информационные технологии, электронные учебники.

**Annotation:** This article reflects on the importance of using multimedia resources in increasing children's interest in science in the process of primary school education.

**Keywords:** Multimedia, information technologies, electronic textbooks.

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni (keyingi o'rinlarda - Farmon) ijrosini ta'minlash maqsadida:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari joriy qilindi.

Bugungi kunda o'quv tarbiya jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va dasturiy ta'minotni amalga oshirish yanada jadallashmoqda. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflarda aksariyat ona tili va o'qish savodxonligi, ingliz tili, texnologiya kabi darslarda multimediadan unumli foydalanilmoqda. Ammo matematika darslarini o'qitishda ham axborot texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ilm-fan taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion goyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yoq. Faqat ilm va marifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.<sup>1</sup>

Axborot texnologiyalaridan keng ko'lamli foydalanilayotgan turi multimedia resurslaridir.

Multimedia —kompyuter uchun mo'ljallangan tovush, video va turli animatsiya effektlari jamlanmasidan iborat texnik yoki dasturiy majmua. Tovush, video, animatsiyalar "multimedia elementlari" deyish mumkin.

Multimedia texnologiyalari axborotning ko'pgina turlarini o'zida integratsiyalaydi. Masalan:

- a) skanerdan olingan tasvirlar;
- b) yozib olingan ovoz, musiqiy effektlar va musiqa;
- c) murakkab videoeffektli videolar;
- d) turli animatsiyalar.

Qolaversa, multimedia vositalariga qo'shimcha qilib proyektor, interaktiv doskani ham kiritish mumkin.

<sup>1</sup> Sh. M. Mirziyoyev

Multimedia orqali olingan bilimlar kishi xotirasiga uzoq saqlanib, kerakli paytda amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Umuman olganda, multimediani qo'llash orqali quyidagi o'qitish samaradorligiga erishiladi:

- bilimlarni o'zlashtirish majburan emas, balki o'quvchi ixtiyori bilan amalga oshadi;
- multimedia o'quvchi tomonidan xursandlik bilan qabul qilinadi, xursandlik esa o'z navbatida, uni o'quv faniga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi;
- o'quvchida o'z faoliyatini baholash uchun yangi obyektiv mezon paydo bo'ladi: kim ko'p bilsa va undan muvaffaqiyatli foydalana olsa, o'sha yutib chiqadi;
- o'z fantaziyalariga erk berish imkoniyati tug'iladi, qo'rquv hissi, boshqalarga kulgi bo'lish hissi, yomon baho olishdan qo'rqish hissi chekinadi;
- jamoada sog'lom raqobat va musobaqa muhiti shakllanadi;
- o'quvchilar mavjud qiyinchiliklarni mustaqil yengib o'tishga intiladi;
- fanlararo bog'lanishni haqiqiy amalga oshirish imkoniyati tug'iladi.

Bu esa barcha fanlar rivoji uchun, qolaversa, o'quvchilarning fanga nisbatan qiziqishlarini o'stirish uchun ancha maanfaatli bo'ladi.

Misol keltiradigan bo'lsak, oddiygina bir olma mevasi haqida o'quvchilarga ma'lumot bermoqchimiz. Ularga qancha ko'p nazariy ma'lumot bersak ham ko'zda ko'rganlikchalik u ma'lumotlar esda qolmaydi. Hech kimga sir emaski, matematika darslarimizda aksariyat masalalarda "olma" atamasini ishlatamiz. Bu barcha uchun oson va qulay tushuncha. Lekin asl mohiyatini ham tushunib yetishimiz kerak.

Nega aynan olma? Sababi shuki, olma inson organizmi uchun juda foydali meva hisoblanadi, tarkibi ko'plab vitaminlarga boy. O'quvchilarga masalani ishlatishdan oldin shu meva haqida ma'lumotlarni multimedialar orqali yetkazsak, videolarda, rangli suratlarda, ovozlarda orqali ularni ko'rib, eshitishsa ularda bir umrlik taassurot paydo bo'ladi. Nafaqat olma, balki masalalarimizda ishtirok etgan har qanday meva yoki biror bir jism haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga multimediyaga orqali yetkazib, so'ngra u haqidagi masalani yechtirsak ancha foydali bo'ladi. Ham biologik bilimlari oshadi, ham matematik bilimlari rivojlanadi.

Ayniqsa, yangi nashrdagi darsliklarga e'tibor qaratadigan bo'sak, darslikdagi har bir mavzuda yangicha zamonaviy atama mavjud. Ya'ni ilgarigidek soda so'zlar o'rni yangicha texnikaviy atamalar egallagan. Bolalarda u haqida tasavvur uyg'otish uchun ko'rgazmali qurollarga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Multimedia vositalari esa o'qituvchilarga yordamchi sanaladi. Bir narsa aniqki, bolajonlar ekranda ko'rganlarini tez eslab qolishadi. Nafaqat yangi atamalarni, balki matematik misollarni ishlanish uslubini ham multimediyalar orqali yetkazish ish samaradorligini oshiradi.

Multimedia deyilganda, faqatgina ekranli uskunalarni tushunish qolmaylik. Oddiygina qo'l telefonimiz orqali ham darsimizni maroqli o'tkazishimiz mumkin. Masalan, matematika darslarida bolalarga kerakli masalani yoki misolni audio orqali eshittiramiz. Bolajonlar esa uni eslab qolib ishlashadi. Bu esa bolalarning ham eshitish, ham zehniy tezliklarini oshiradi, diqqatni jamlashga yordam beradi.

Ayniqsa, dam olish daqiqalarda audiolardan unumli foydalansak bo'ladi. Bolalarni ham qiziqtiruvchi, ham dam oldiruvchi bir qancha usullar mavjud. Ulardan biri barcha fanlarda ham qo'llasak bo'ladigan usul - bolalarga audio orqali hayvonlarning ovozi ketma-ket eshittiriladi va o'quvchilar bu ovoz qaysi hayvonga tegishli ekanligini topishadi. Bu interfaol metodlar barcha boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli bo'ladi.

Bolalarning qalbi shunday beg'uborki, uni go'zal ranglar orqali to'ldirish bolaning ilmiy salohiyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

**Xulosa:** Xulosa shundayki, bu kabi ajoyib imkoniyatlardan matematika darslarida ham keng foydalanilsa, o'ylaymanki, samaradorlik oshadi. Bolajonlar doim kitobga yoki doskaga termulib misol yechishdan biroz cheklanishsa, ya'ni o'rganilayotgan mavzu multimedia orqali yetkazib berilsa yanada qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Ayniqsa, bu usul o'zlashtirishi orqaroqda bo'lgan o'quvchilar uchun ham ancha



foydali bo'ladi. Matematika darsligidagi masalalarni audiolar, suratlar orqali yetkazish o'quvchilarning diqqatini yanada orttiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta'lim.-2020.-No 1 (86). —S.5. 8. Шадриков В.Д.
2. Философия образования и образовательные политики. -М.: Издательская фирма «Логос», 1993. –181 с.
3. Фурсенко А.А. Комплексная модернизация образования как механизм обеспечения инновационного развития социально —экономической сферы // Юридический журнал. — 2008. —No 7 (39). —С.4. 10.
4. J. Slater, The Politics of History Teaching: A Humanity Dehumanized. (SpecialProfessorial Lecture). London: Institute of Education, University of London.-1989 -S. 8.